

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Korrupsiya bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni aks ettiruvchi xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston pozitsiyasi pasaygan indikatorlarni tahlil qilish va ularni oshirish bo‘yicha maqsadli dastur ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Korrupsiyani qabul qilish indeksi va uning 9 ta manbalari - Transparency International, Bertelsmann Foundation, The Economist (EIU), Freedom House, Global Insight, PRS Group, World Justice Project, Varieties of Democracy va Jahon banki hisobotlarining baholash uslubiyotlarini chuqur o‘rganish orqali tahlil sifati oshadi; - Indeksda O‘zbekiston o‘rnini oshirish bo‘yicha maqsadli dastur ishlab chiqiladi; - Korrupsiyaga qarshi kurashishga mo‘ljallangan davlat dasturlarida manzilli chora-tadbirlar kiritilishi natijasida xalqaro reytinglarda mamlakat o‘rnini oshirishga imkoniyat beradigan huquqiy, tashkiliy va institutsional takliflar tayyorlanadi; - Korrupsiyani qabul qilish indeksida 2030-yilgacha belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq yo‘l xarita ishlab chiqiladi; - mas‘ul davlat tashkilotlari uchun mazkur reyting bilan ishlash bo‘yicha uslubiy qo‘llanma materiallari tayyorlanadi; - reyting va uning indikatorlari bilan bevosita ishlaydigan tashkilotlar uchun o‘quv kurslari ishlab chiqiladi; - sun‘iy intellekt joriy etish orqali har yili e‘lon qilinadigan reytinglar tahlili asosida prognozlashtirish yo‘lga qo‘yiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Bosh prokuratura organlari va muassasalari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida xulosa olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
2.	Sudyalar va sudyalikka nomzodlar malakasini oshirishga qaratilgan “Sud muhokamasi simulyatsiyasi” elektron platformasini ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Huquq ustuvorligi indeksining “Fuqarolik odil sudlovi” indikatoridagi “Fuqarolik odil sudloviga erishish darajasining yuqoriligi” hamda “Fuqarolik odil sudlovining samarali amalga oshirilishi”, shuningdek “Jinoiy odil sudlov” indikatoridagi “Jinoyat sudi qarorlarining o‘z vaqtida va samarali chiqarilishi” subindikatorlarida O‘zbekistonning ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi; - har xil turdagi ishlar (jinoyat, fuqarolik, ma‘muriy, iqtisodiy) bo‘yicha ssenariylar bazasi shakllantiriladi; - sud jarayonidagi murakkab ishlar va vaziyatlar modellashtiriladi; - real ko‘rilgan ishlar asosida keyslar ishlab chiqiladi va ularga asoslangan simulyatsiyalar yaratiladi; - virtual sud jarayonini o‘tkazish bo‘yicha elektron platforma ishlab chiqilib, unda ishda ishtirok etuvchi shaxslar (tarafklar, advokat, prokuror, guvoh va b.)ning virtual avatarlari bilan muloqot qilish hamda qaror qabul qilish jarayonining vizuallashtirilgan jarayoni ta‘minlanadi; - sudya va sudyalikka nomzodning stress va etik jihatdan murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish, murakkab ishlarni hal qilishda moddiy va protsessual qonunchilikni to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatini aniqlash metodikasi ishlab chiqiladi; - qarorlar sun‘iy intellekt yordamida baholanadi hamda baholash natijalariga ko‘ra sudyaning malakasini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi; - sudyalar va sudyalikka nomzodlar malakasini oshirishga qaratilgan “Sud muhokamasi simulyatsiyasi” elektron platformasi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Oliy sud tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Oliy sud xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
3.	Halol va xolis sudyalarning korpusini shakllantirishni ta'minlash maqsadida “Sudyalik lavozimiga nomzodlarning psixologik portretini shakllantiruvchi elektron dastur”ni ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - World Justice Project xalqaro nodavlat tashkilotining Huquq ustuvorligi indeksida O‘zbekiston natijalarini yaxshilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi; - sudyalikka nomzodlarning halolligi va xolisligini aniqlashning zamonaviy va innovatsion usullari hamda milliy mezonni ishlab chiqiladi; - sudyalikka nomzodlarning halolligi, adolatligi, beg‘arazligini aniqlovchi keng qamrovli psixologik testlar ishlab chiqiladi; - psixologik testni o‘tkazuvchi elektron test platformasi yaratiladi; - har bir kategoriya bo‘yicha test javoblarini avtomatik ravishda tekshirish va umumlashtirish, hisobotni shakllantirish tizimi joriy etiladi; - psixologik test va to‘plangan boshqa ma’lumotlar asosida nomzodning psixologik portretini shakllantirish usuli yaratiladi; - halol va xolis sudyalarning korpusini shakllantirishni ta'minlash maqsadida “Sudyalik lavozimiga nomzodlarning psixologik portretini shakllantiruvchi elektron dastur” ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Oliy sud tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Oliy sud xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
4.	Yangi O‘zbekistonning huquq ustuvorligini ta’minlashga oid xalqaro reytinglardagi nufuzini oshirishga qaratilgan axborot portalini yaratish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - World Justice Project xalqaro tashkilotining Huquq ustuvorligi indeksida va Jahon Bankining Boshqaruv sifati indikatorlari (Worldwide Governance Indicators) bo‘yicha mamlakatimizning o‘rishni ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi; - huquq ustuvorligi sohasidagi past ko‘rsatkichli indikatorlar bo‘yicha muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uslubiyoti ishlab chiqiladi; - tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ma’muriy sud ishlarini yuritish, axborot olish huquqi va davlat boshqaruvi shaffofligi bo‘yicha amaldagi qonunchilikka takliflarni o‘z ichiga olgan normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqiladi; - Yangi O‘zbekistonning huquq ustuvorligini ta’minlashga oid xalqaro reytinglardagi nufuzini oshirishga qaratilgan “Huquq ustuvorligi” axborot portalini yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Adliya vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Adliya vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
5.	Hukumatning sud qarorisiz va adolatli tovon pulisiz mulkni musodara qilishiga yo‘l qo‘ymasligi yo‘nalishidagi muammolar va ularni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha milliy metodika ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Huquq ustuvorligi indeksida O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini tahlil qilish natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan mas‘ul davlat organlariga tavsiyalar amaliy qo‘llanma shaklida ishlab chiqiladi; - sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida mamlakatimizda amalga oshirilgan ijobiy o‘zgarishlarni xalqaro maydonda keng yoritishga qaratilgan maqolalar va tahliliy materiallar tayyorlanadi; - hukumatning sud qarorisiz va adolatli tovon pulisiz mulkni musodara qilishiga yo‘l qo‘ymasligi yo‘nalishidagi muammolar va ularni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini oshirish milliy metodikasi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Adliya vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Adliya vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
6.	Korrupsiyani qabul qilish indeksida O‘zbekiston o‘rnini yaxshilash bo‘yicha amaliy mexanizmlar hamda amaliyotchilar uchun metodologik baza yaratish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - korrupsiyani qabul qilish indeksida mamlakatlarni baholash mezonlarini chuqur o‘rganish orqali tahlil va prognoz sifati oshadi; - indeksning past ko‘rsatkichli indikatorlari bo‘yicha muammolarni bartaraf qilish xaritasi yaratiladi; - xalqaro tajriba kompleks tarzda o‘rganiladi (reytingda yuqori o‘rinlardagi davlatlar misolida); - korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan metodik qo‘llanmalar ishlab chiqiladi; - O‘zbekistonning Korrupsiyani qabul qilish indeksidagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha amaliy mexanizmlar ishlab chiqiladi; - tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, davlat organlari faoliyati shaffofligini oshirish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar asosida normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqiladi; - O‘zbekistonning Korrupsiyani qabul qilish indeksidagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha amaliyotchilar uchun metodologik baza yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija va ularning joriy etilishi
7.	Hokimiyat organlari vakolatlarining sud hokimiyati, mustaqil tekshiruvlar hamda jamoatchilik nazorati orqali samarali cheklanishi yo‘nalishlarida mavjud muammolar hamda huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha milliy metodika ishlab chiqish 	Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - Huquq ustuvorligi indeksida O‘zbekistonning pozitsiyasini yaxshilash maqsadida, hokimiyat organlari vakolatlarining sud hokimiyati, mustaqil tekshiruvlar hamda jamoatchilik nazorati orqali samarali cheklanishiga oid subindikatorlar bo‘yicha yuqori reytingga ega davlatlar tajribasi asosida chora-tadbirlar ishlab chiqiladi; - hokimiyat organlari vakolatlarining sud hokimiyati, mustaqil tekshiruvlar hamda jamoatchilik nazorati orqali samarali cheklanishi yo‘nalishlarida huquqni qo‘llash amaliyotiga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi; - tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, amaldagi qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi tayyorlanadi; - hokimiyat organlari vakolatlarining sud hokimiyati, mustaqil tekshiruvlar hamda jamoatchilik nazorati orqali samarali cheklanishi yo‘nalishlarida mavjud muammolar hamda huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha milliy metodika ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Adliya vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Adliya vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Nufuzli ilmiy jurnallar, jumladan Web of Science va Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.